

## NAVOIY IJODIDA AVLIYO OBRAZINING POETIK MOHIYATI

**Qobulova Muyassar Omonboy qizi**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

**Annotation:** This article discusses the artistic interpretation of the image of the saint in the works of Alisher Navoi. In particular, attention is paid to the role of Saint Bahauddin Naqshband in Navoi's work.

**Key words:** Alisher Navoi, the image of a saint, artistic essence, Bahauddin Naqshband

Alisher Navoiy asarlarining qomusiy lug‘atida “Avliyo” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Avliyo – valiyalar, Xudoning do‘stlari. Jomiyning talqini bo‘yicha, avliyo so‘zi “valiyun” (yaqin kishi, do‘st) so‘zidan olingan bo‘lib, ikki – umumiy va xos holatlarda qo‘llaniladi. Umumiy holatda barcha imonli kishilar avliyo hisoblanadi, chunki Alloh jamiyki bandalaridan faqat muayyan qisminigina imon saodati bilan musharraf etib, O‘zini bilish va tanish yo‘lida sobitqadam qilgan. Ikkinchi, xos holatda esa imonli bandalar ichidan niyati pok va to‘g‘riso‘z, yomon ishlardan tavba qilib, umrini faqat ezgu ishlarga sarf etgan, toat-ibodatini bekamuko‘st bajarib, bandalik va ilohiylik maqomlarini anglagan, cheksiz riyozati va go‘zal xulqi bilan boshqalarga namuna bo‘lgan, payg‘ambarlar ilmining merosxo‘ri sifatida tanilgan, egallagan bilimiga riyosiz amal qilgan zotlar avliyolik darajasiga yetgan bo‘ladilar”[1]

Imom G‘azzoliy “Kimyoyi saodat” kitobida shunday yozadilar: “Va ul sifatlar kim, botiningda jam qilibdurlar, ba’zisi chahorpolar sifati va ba’zisi darrandalar sifati va ba’zisi farishtalar avsoflaridur. Va sen bu sifatarning qaysi biriga egadursen? Va ko‘ngling gavharini bu sifatarning qaysisidin xalq qilibdur? Va qaysi sifatlar g‘arib va oriyatdur? Agar sen to‘rtoyoqlilar, ya’ni hayvonlar, darrandalardansen, bularning ishlariga mashg‘ul bo‘lg‘il. Va ularning tariqasin o‘zingga lozim tutgilki, tokim to‘rt oyoqlilar martabasi va ularning saodatig‘a

yetg‘aysen. Va farishtalarning g‘izosi va saodati – Haq taoloning jamoli bokamolini mushohada qilmoq birladur. G‘azab va shahvat chahorpolar va darrandalar va shayotin sifatlari farishtalarning pok, saxovatli vujudlarig‘a yo‘l topmas. Va agar asling farishtalar gavharidandur, o‘z asling kamoliga jahdi tamom qilg‘ilki, to Haq taoloni tanig‘aysen. Va ul jamoli bezavolni tanimoqqa yo‘l topg‘aysen”[2]

Jahon mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi sanaluvchi bobokalonimiz Alisher Navoiy yuqoridagi xislatlarga ega bo‘lib, butun hayoti davomida insoniyatga faqat yaxshiliklar tilab, ezgu amallar bilan mashg‘ul bo‘laganlar. Bu zotning ijodiyoti butun borlig‘icha bashariyat taqdiriga daxldorlik bilan yo‘g‘rilgan. Bu buyuk qalb egasining qalamiga mansub har bir so‘z, har bir misra o‘zidan ezgulik uforini taratib turadi. Shuning uchun ham bu ijod namunalarida payg‘ambarlar, avliyolar obrazlarining muayyan poetik maqsadning ro‘yobi uchun tez-tez qalamga olinganligini kuzatamiz.

*Nukta asnosida habibi iloh*

*Dedi alkosibu habibulloh.*

*Ma‘ni aytur bu so‘zga bir komil,*

*Ki so‘zi erdi haq sori shomil.*

*G‘araz ermas bu kasbdin dunyo,*

*Bal erur kasbidin murodi fano.[3]*

Insoniyat badiiy tafakkurining oliy namunasi sanalmish “Xazoyin-ul ma‘oniy” devonining uchinchi kitobi “Badoye’-ul vasat”dan o‘rin olgan avliyo Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan yuqoridagi qit‘ada hazrat Navoiy yashashdan maqsad nima ekanligini kitobxonga uqtirmoqchi bo‘ladilar. Avliyosifat inson qo‘li ishda bo‘lgani holda qalabda Allohni yod qiladi. Inson zoti bu dunyoga kelib yashar ekan, o‘z umri davomida atrof-olamga – zamondoshlariga, kelajakka faqat yaxshiliklar sog‘inib yashamog‘i lozim. Alloh bergan zehn, qobiliyat natijasida ustozlar tarbiyati bilan inson qaysidir kasbni egallaydi. Bu kasbda halol ishlab, o‘zgalar haqiga xiyonat qilmasdan yashash oliy maqsad bo‘lmog‘i lozim. “Ikki dunyo saodati” tushunchasi mohiyatini anglagan qalblardagina bunday oliy maqsad yashaydi. Bugun dunyodagi barcha xunrezliklar qalbida razillik in qurgan inson qiyofasidagi nusxalarning

ko‘ngilochar mashg‘uloti ekanligi ezgu niyatli kishilarning boshlarini xam, ko‘zlarini nam qiladi. Yuqoridagi qit‘aning oxirgi baytidagi kasbdan g‘araz mol-dunyo to‘plash emas, balki fanodir kabi poetik g‘oya ilgari suriladi. Chunki Xoja Bahouddin Naqshband “Al-kosibu habibulloh” degan hadisni sharhlaganida bu hadisda kosib – foniyl demakdir, nison foniyni kasb etgandagina Haq taoloning sevimli bandasiga aylanishi mumkin” kabi qarashlarga e‘tiqod qilgan. O‘sha foniyga qadar esa inson poklikni kasb qilib, yorug‘ yuz bilan fanoga rihlat qilmog‘i lozim.

Navoiy Naqshbandiy haqida “Nasoyimul muhabbat” tazkirasining muqaddimasida ham, u haqdagi alohida bobida ham keng to‘xtalib o‘tadi. Xususan, Xoja Bahouddin Naqshband qaddasallohu sirrahuga bag‘ishlangan bobda quyidagicha ma‘lumot beradi:

“...Yana alardin so‘rdilarki: “Sizning tariqingizda zikri jahr va xilvat va samo‘ bo‘lur?” [Sizning tariqatingizda zikrni oshkora, ovoz chiqarib aytish, odamlardan xilvatda ibodat qilish, darveshlarning qo‘shiq va raqs bilan zikr tutishlari mumkinmi? (Tabdil bizniki- M.Q.) ] Dedilarki: “Bo‘lmas!” Yana so‘rdilarki: “Sizning tariqingiz binosi ne ishkadur?” Dedilarki: “Anjumanda xilvat, zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin Haq subhonahu va taolo bila”.

*Ko‘nglingda oshno bo‘l-u, siringda begonadek.*

*Bunday zebo ravish jahonda kamyobdir.*

Ulcha Haq subhonahu va taolo buyurubdirki: “ Ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan mashg‘ul qila olmas”(Nur,37) ishorat bu maqomg‘adur” Dedilarki, alarg‘a hargiz qul va dodak bo‘lmas erdi. Alardin bu ma‘noda so‘rubturlar. Alar debdurlarki: “Qachon bandaliq xojaliq bila rost kelur?” ... Alar yeti yuz to‘qson birda robi‘ul avval oyining uchida, dushanba kechasi olamdin o‘tibdurlar”. [4]

Alisher Navoiy asarlarining “Qomusiy lug‘ati”da shunday ma‘lumotlar keltirilgan: “Hayrat-ul abror” ning 21-bobida Navoiy Bahouddin Naqshband haqida so‘z yuritib, uni fano ilmini kasb etgan sohibdil darvesh, ko‘nglidan dunyo havaslari naqshini butkul o‘chirib, basirat nazarini baqo olami go‘zalliklariga qaratgan orif, butun olam ko‘ziga uzukka o‘yilgan naqshdek kichik va ahamiyatsiz ko‘ringan buyuk ma‘rifat egasi, ma‘rifat nuri bilan soliklar yo‘lini munavvar etgan ma‘naviy

rahnamo sifatida ta’riflaydi”. [1] Tasavvufning naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qilgan hazrat Navoiy “Hayrat-ul abror” ning 21-bobida bu buyuk avliyoni shunday madh qiladiki, har bir misrada mehr-muhabbat, maftunlik, kuchli havas va boshqa ezguliklar jo bo’lgan ulug’ va betakror bir samimiyatni his qilamiz:

*Charxi nigun dargahida xokro ‘b,  
Balki jabini bila xoshokro ‘b.  
Yuz qo ‘yubon qullug ‘ig ‘a shohlar,  
Bazmida bexud o ‘lub ogohlar,  
Xizmatidin har kishi ogoh o ‘lub ,  
Garchi gado ma ‘ni ila shoh o ‘lub .  
Suhbatida har necha beshakku rayb,  
Jilva qilib shohidi ra ‘noyi g ‘ayb [5]*

Biz tasavvufga doir manbalardan bilamizki, Bahouddin Naqshband ta’limotining asosida “Dil ba yoru dast ba kor”, ya’ni “Ko’ngil yor – Allohda, qo’l ishda” degan shior yotadi. Mana shu tamoyil tasavvufiy qarashlarni kundalik turmush hayotiga moslashtiradi va natijada tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlaydi. [1] Shuningdek, o’n bir asosga ega bo’lgan dasturning to’rtinchisida “Xilvat dar anjuman”, ya’ni zohiran xalq bilan, botinan haq bilan bo’lish g’oyasi yotadi. Quyidagi misralarda Navoiy ana shunga ishora qiladi:

*Go ‘shai xilvat aro tutmay qaror,  
O ‘zini qilmay yashurun oshkor.*

Quyidagi misralarda esa, shoir Bahouddin Naqshbandning valiylarga xos xislatlarini shunday chizadi:

*Mulki jahon mazrai dehqoni ul,  
Balki jahon mulki nigahboni ul.*

Ya’ni, jahondagi barcha ekin maydonlarining dehqoni, hattoki butun olamning qo’riqchisi, kuzatuvchisi deya ta’riflaydi. Buning yana bir talqinini shunday berish mumkin. Yunus surasi 26-oyatida “Ezgu ish qilganlarga chiroyli (savob-jannat) va ziyodalik (Allohning diydorini ko’rishlik) bordir. Ularning yuzlarini qoralik ham,

xorlik ham qoplamas. Aynan o'shalar jannat ahlidirlar, ular u yerda mangudirlar” deb marhamat qilingan bo‘lib, Allohning do‘sti hisoblanmish Naqshbandiyini ham bu buyuk mukofotga sazovor bo‘ladigan valiy sifatida, ana shu ma’noda butun ma’naviy-ruhiy mulkning sohibidir va u shu jihatidan dehqon va nigohbonidir deb ta’kidlayapti shoir.

Mana shu singari maqtovlar, ta’rif-u tavsiflardan keyin shoir Allohga shunday iltijo qiladi:

*Toki jahon qasrining imkoni bor,  
Ustida oning falak ayvoni bor.  
Qo‘ymasun ayvoni jahonni tihi,  
Dabdabai ko‘si Ubaydullahi.[4]*

Ya’ni bu avliyo g‘oyalarining jarangdorligi dunyo turguncha bardavom bo‘lgay va hazrat Navoiy yana shunday iltijo qiladi:

*Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,  
Faqr yo‘lida g‘ani, imong‘a boy.*

Biz hazrat Navoiyning Bahouddin Naqshband siymosini bu qadar samimiyat, mehr-u muhabbat bilan yaratganligi haqida shunday xulosalar berishimiz mumkin:

1. Shoir avliyolarga, xususan, Bahouddin Naqshbandga xos ma’naviy-ruhiy poklikni tarannum etishni o‘zining muridlik burchi deb biladi.
2. Bahouddin Naqshbandga xos go‘zal sifatlar haqida yozar ekan, oddiy kitobxonni uning ajoyib xulqidan ibrat olishga da’vat etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.
3. Hazrat Navoiyning bunday ezgu maqsadi Sharq mumtoz adabiyotidagi hamd va na’tlar yozish yoki bag‘ishlash kabi an’analar mazmunini boyitadi.

Marhum adabiyotshunos-navoiyshunos olim Najmiddin Komilov o‘zining “Tasavvuf” nomli risolasida, xususan, uning “Xilvat va anjuman” nomli faslida Bahouddin Naqshband tasavvufi, mazmun-mohiyati haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. [6]

Atoqli adabiyotshunos Sultonmurod Olimning “Naqshband va Navoiy” kitobida naqshbandiylik tariqati haqida shunday fikrlar bildiriladi: “Naqshbandiya garchi o‘z g‘oyalarini yoya boshlagan hududlar aholisi ijtimoiy xususiyatdan kelib chiqib ish

ko‘rgan bo‘lsa ham, mohiyatan aholi ijtimoiy qatlamlararo tabaqa ajratmagan bir tariqat edi. Boshqacha aytganda, naqshbandiya uchun hamma teng – shoh-u gado barobar edi”.[7] Demak, hazrat Navoiy ijodining asosiy tamoyili hisoblangan barchani barobar ko‘rish, bir so‘z bilan aytganda, buyuk insonparvarlik g‘oyalari ana shu mangu chashmadan ozuqa olgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.“Алишер Навоий Қомусий луғати”. Т. ШАРҚ НМАК, 2016. – Б. 560.
- 2.Abu Homid G‘azzoliy. «Kimyoi saodat» (Ruh haqiqati) «Adolat» nashriyoti. Toshkent ,2005. B.18
- 3.Алишер Навоий. “Хазойинул - маоний” III том, “Бадойиул - васат”. ФАН.; Тошкент – 1960. Б.691
- 4.Алишер Навоий. “Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват”. “Movarounnahr” nashriyoti. Тошкент.2017. Б.301
- 5.Алишер Навоий. “Ҳайратул-аброр”. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1989. Б.68
- 6.Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.: “Ўзбекистон”. 2009. – Б. 448.
- 7.Султонмурод Олим. “Нақшбанд ва Навоий”. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти. 1996. Б.182

